



CANADA

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE**

INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION



**23 APRIL
2024 YEAR**

CANADA, OTTAWA





INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION

International scientific-online conference

**Part 28
April 23rd
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

CANADA 2024

INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd April , 2024) – Canada, Ottawa : "CESS", 2024. Part 28–334 p.

Chief editor:

Candra zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference

"INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION".
Which took place in Ottawa on April 23, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024
© Authors, 2024

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING SHAXS EMOTSIONAL BARQARORLIGI

xususidagi qarashlari

Kamolova Shirinoy Usarovna

JDPU umumiy psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Xudoyqulova Gavhar Sulton qizi

Pedagogika va psixologiya mutahassisligi 2-bosqich magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqola bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib, sharq mutafakkirlarining shaxs emotsional barqarorligi xususidagi qarashlari masalasiga qaratilgan. Shuningdek axloqiy tarbiyani rivojlantirishda umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish masalalari o'rgnilgan.*

Kalit so'zlar: *Xissiyot, emotsiya, emotsional barqarorlik, xarakter, tarbiya, axloq, axloqiy pedagog, tafakkur, dunyoqarash, milliy-madaniyat, urf-odat, odob-axloq, axloqiy fazilat.*

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsning ilg'or dunyoqarashi va inson madaniyatini shakllantirish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Chunki bilimdonlikka, o'ylab fikrlashga, donolikka intilmagan shu sifatlardan uzoq bo'lgan inson to'laonli shaxs bo'lib shakllana olmaydi.

Hozirgi davr talabi ma'naviy jihatdan yetuk har tomonlama bilimdon, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish bo'lib, bu muammo shaxsga beriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsning ma'naviy yetukligi, bilimi, zehnliligi kabilar ham aynan shu ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda odoblilik, muomala madaniyati, teran fikrlilik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik sezgirlikni shakllantirish, har qanday muammo va masalaga to'g'ri yondashishda o'zining emotsional holatini to'g'ri boshqara olishga urgatish va rivojlantirish muhimdir.

Inson uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovon shaxs manfaatlarini ruyobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarni yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy, madaniy, iqtisodiy, fan va texnika texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda ham o'lgan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday o'zgarishlar yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarbligini asoslaydi.

Yoshlarni yuksak his-tuygʻularga ega, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash yoʻlida, oʻtmishdan bizga nasib etgan inson tafakkurining durdonalarini, yaʼni ulugʻ mutafakkirlarimizning ilgʻor fikrlarini oʻrganish — muhim ahamiyatga ega boʻlgan zamon talabidir. Chunki ularning ilm-maʼrifat va taʼlim-tarbiya sohasidagi benazir fikrlari, barkamollik sari yoʻnaltiruvchi gʻoyalari bugungi umumbashar taraqqiyot uchun, yoshlarning hamma narsaga qiziquvchan, izlanuvchan idroklari uchun sayqaldek bebaho xazinadir.

Ana shu xazinadagi eng sara javohirlari - beshak Sharqning butun olamga dongʻi taralgan olimu-ulamolari, fozilu-fuzalolari desak yanglishmagan boʻlamiz. Komil insonni tarbiyalash va ularning maʼnaviyati va aqliy qobiliyatini toʻgʻri tarbiyalash masalasi sharq mutafakkirlari Abu Rayhon

Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Husayn Voiz Koshifiy, Alisher

Navoiy, Abdulla Avloniylar tomonidan oʻrganilgan. Inson va uning kamolotiga xizmat qiluvchi qomusiy taʼlimot Abu Nasr Forobiy (873-950 y.) asarlarida oʻz izchilligi va mukammalligi bilan hozirgi davrgacha oʻz kuchini, haqqoniyligi, dolzarbligi va ahamiyatini yoʻqotmagan. Forobiyning inson va uning psixikasiga doir, oʻz zamonasiga nisbatan progressiv fikrlari: “Fozil odamlar shahri”, “Masalalar mohiyati”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar”, “Jism va aksidensiyalarning shakllarga qarab boʻlinishi”, “Sharhlardan”, “Hikmat maʼnolari”, “Aql maʼnolari haqida” kabi qator asarlarida keng bayon etilgan. Forobiyning inson va uning psixikasiga doir, oʻz zamonasiga nisbatan progressiv fikrlari: “Fozil odamlar shahri”, “Masalalar mohiyati”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar”, “Jism va aksidensiyalarning shakllarga qarab boʻlinishi”, “Sharhlardan”, “Hikmat maʼnolari”, “Aql maʼnolarihaqida” kabi qator asarlarida keng bayon etilgan. Forobiy inson va hayvon psixikasi oʻrtasidagi farqni oʻz zamonasining ilmi darajasida toʻgʻri tushungan va hozirgi psixologiya ilmi tomonidan oʻrganilayotgan deyarli barcha ruhiy jarayonlar toʻgʻrisida anchagina mukammal tasavvurga ega boʻlgan. Hayvon va inson psixikasida, maʼlum jihatdan umumiylikka ega boʻlgan va ularni keskin farq qildirib turuvchi maʼlum xususiyatlar, psixik jarayonlarning asosiy turlarini talqin etgan.

Forobiy “Ilm va sanʼatning fazilatlarini” risolasida barcha psixik jarayonlarni quvvatlar deb nomlab, ularni ikki katta: tashqi va ichki quvvatlar guruhiga ajratgan. Tashqi quvvatlarga, bevosita tashqi taʼsir natijasida, odamning tashqi organlari bilan bogʻliq boʻlgan beshta sezgi organlari orqali vujudga keluvchi quvvatlarni kiritadi.

Ularning hammasini Forobiy «Quvvai hissiya», yaʼni «his etish, sezish quvvati» deb atab, hissiy bilish qismlari sifatida qaraydi va ularni insonga ham, yuqori darajadagi hayvonga ham xos ekanligini qayd qiladi. Tashqi organlarga bevosita bogʻliq boʻlmagan, tashqaridan olingan obrazlar asosida ichki psixik jarayonlar natijasida vujudga keladigan quvvatlarni esa ichki quvvatlar deb nomlagan. Bularning qatorida his-tuygʻu ham oʻz oʻrniga egadir:

1.Xotira-tasavvur quvvati – «quvvai mutaxaynila».

2. Hayol quvvati – «quvvai hayoliyya».
3. Hissiyotlar, his-tuyg‘u quvvati – «quvvai naz’iyya».
4. Nutq quvvati – «quvvai notiq»
5. Quvvai notiq ichida mantiqiy fikrlash quvvati — «Quvvai fikriyya».

Mutafakkir tashqi besh sezgi va xotiraning hayvonda ham mavjudligini, xayol qilish va so‘zlash, fikr yuritish, aql quvvatini faqat insongagina xosligini ta’kidlaydi. Tashqi sezgilar vositasida bilish bilan aqliy bilish o‘rtasidagi tafovutga Forobiy alohida e’tibor beradi. Uning ta’kidlashicha, tashqi sezgilar narsalarning konkret xossalarini, obrazlarini bevosita aks ettiradi-yu, ammo uni bir butun holda ma’nosi, mohiyati bilan bilib ololmaydi. Bu vazifani fikr qilish bajaradi.

Hozirda hissiyot, emotsiya deb nomlanuvchi kechinmalar, mutaffakkir tomonidan — qalb affektlari deb nomlanib, ularning turlari “Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola”da kengroq berilgan. Shu bilan birga, ushbu hissiyotlar Forobiyning ta’kidlashicha, baxtga, komillikka eltuvchi uch vaziyatdan biri sifatida

keltirilgan:

“Insonning maqsadi – baxtga erishmoqlik, chunki bu komillik nishonasidir. Ammo, inson maqtov yoki dakkiga sabab bo‘luvchi vaziyatlarda baxtga erisholmaydi. U barcha vaziyatlar jamuljam bo‘lganida baxtga erishadi.

Birinchisi – bu odam tana a’zolaridan foydalanish uchun kerak bo‘lgan harakatlardir, masalan, turish, o‘tirish, ovqatlanish, ko‘rish, eshitish uchun.

Ikkinchisi – qalb affektlari – ehtiros, g‘azab, lazzatlanish, quvonch, qo‘rquv, g‘amg‘ussa, rashk, achinish.

Uchinchisi esa – sog‘lom fikr yuritishdir. Bu fazilat, insonga butun umri davomida yoki paytiga xosdir” deb fikt yuritgan.

Forobiy o‘zining bir qator asarlarida hissiy bilish va aqliy bilishning barcha bosqichlari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda keltirishidan tashqari, hissiy bilish va aqliy bilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarning har biriga ham alohida-alohida tavsif bergan.

So‘z mulkingning sultoni bo‘lmish Navoiyning ushbu misralaridan, o‘zimizga juda ko‘p ma’no chiqarsak bo‘ladi. Haqiqatda, hayotimiz davomida biz uchratgan yuksak fazilatli insonlar haqida faxrlanib gapiramiz, ularni uchratganizda yoki xotirlaganimizda xursand bo‘lamiz.

Ammo, Navoiy aytganidek boshqalarning yuksak fazilatlari, bu ularning farzandi, ya’ni bu ularning komillik sari sa’i harakatlarining natijasi, ularning yutuqlaridir. Biz ham, ulardan ibrat olgan holda, inson o‘z farzandini o‘stirib, voyaga yetkazish jarayonida bo‘lganidek, o‘zining “Men”i, xulq-atvori, hissiyotlari va tuyg‘ularini jonkuyarlik bilan o‘z-o‘zini nazorat qilish, anglash, ta’lim berish, tarbiyalash, tanqid qilish yoki rag‘batlantirish kabilarni nechog‘lik shakllantira olsa, mevasi ham shunchalik totli bo‘ladi.

Ushbu g'azalning o'zida, Navoiy, inson o'z-o'zini tarbiyalash yo'lida, nafsni dushman deb bilish, hayvoniy hissiyotlar, hamda salbiy his-tuyg'ularni tiyishga chaqiradi. O'z-o'zini tarbiya qilish bilan yuksak his-tuyg'ularni shakllantirishga yo'l-yo'riq berish bilan birga, buyuk murabbiy bobokalonimiz, bu yo'lni bosib o'tish, insondan ruhan kuchli bo'lishni talab etishi bilan birga, kamtarlikda me'yorni ham bilish kerakligini uqtiradi.

A.Navoiy asarlarida salbiy hissiyotlar og'ushida amalga oshirilgan xatti-harakatlar, o'z navbatida salbiy his-tuyg'ularni paydo bo'lishiga, go'zal tuyg'ularga boy, ma'nau yo'g'rilgan sa'i harakatlar, fazilatlar esa, o'z navbatidan shunday bitmas-tuganmas ham jismoniy, ham ma'naviy boylikka olib kelishi borasida ham go'zal satrlarni ko'plab uchratamiz.

Shaxs xarakterining emotsional barqarorlik xislatlarining shakllanishini davomida psixologiyada ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Emotsional barqarorlik xislatlarining inson xarakterida ko'zga tashlanadigan xususiyatlar bilan bog'lab tushuntiriladi. Psixologiyada irsiyat bilan xarakterining munosabati to'g'risida xilma-xil qarashlar mavjuddir (Krechmer, Sheldon va boshqalar).

Aksariyat psixologlarning e'tirof etishlaricha, organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xislatlarining paydo bo'lishidagi shartlaridan biri hisoblanadi, xolos. Ma'lumki xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar tavsiflanadi. Ushbu masalani irsiyatga bog'lab tushuntirishi gomozigota egizaklarni o'rganish orqali inkor qilinadi, chunki ularning nasliy xususiyatlari aynan bir xildir. Ular temperament xususiyatlari bo'yicha tubdan o'xshash bo'lsalarda lekin xarakter xislatlariga ko'ra bir-biridan keskin farq qildilar.

Shuning uchun xarakterning shaxs turmush sharoitiga bog'liqligini:
a)uning fiziologik asosi sham, b) tashqi taassurotlar tizimi tufayli vujudga keladigan shartli reflektor funksional holati ham tasdiqlaydi.

Xarakter tarkib topishi muayyan qonuniyatlar ta'sirida amalga oshadi. Xarakterning har bir xislati shaxs munosabatlariga bog'liq bo'lsa ular o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi.

Nasliy xususiyatlari bir xil egizaklarda turlicha ijtimoiy muhitda har xil xarakter xislatlari shakllanadi. Shu sababdan ijtimoiy tizimni tavsiflovchi keng ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy tipik xususiyatlarigina emas, balki xarakterning individual xususiyatlari (xislatlari) tarkib topishiga ham katta ta'sir o'tkazadi.

Ijtimoiy munosabatlarga bevosita yoki bilvosita bog'liq tarzda, oilada, bolalar va mehnat jamoalarida hayrixoxlik, o'rtoqlik, o'zaro yordamlashish, hamkorlik yoki, aksincha, johillik, zolimlik, badjahillik kabi shaxslar aro munosabatlar tarkib topa boshlaydi. Oilaviy muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, farzanlarning miqdori, yoshidagi farqi, nizoli vaziyatlar ko'rinishi, ota-ona munosabatiga asoslangan holda xarakterning o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.М. Ҳайруллаев. Форобий руҳий процесслар ва таълим-тарбия тўғрисида китобидан 45-бет
- 2.Forobiy “Fusus al Hikam”, “Majmual Forobiy”, Qohira, 1905, 149-152-betlar
3. Farobiy. Fozil odamlar shaxri. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - B. 11-19.
- 4.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. Toshkent, 2017 y.,
- 5.G‘oziev E.G‘. Pedagogik psixologiya asoslari– T. —O‘qituvchi, 2000. 44

<i>CTATYC</i>	
Ramazonov Amir Akbarovich <i>XALQARO TERRORIZM XALQARO JINOYAT SIFATIDA</i>	378
Mamadaliyev Kamildjan Bazarbayevich Mamadaliyev Baxtiyor Kamildjanovich <i>TEOREMA ISBOTLASH USULLARINI O'QITUSHDA PREDIKATLAR ALGEBRASI FORMULARIDAN FOYDALANISH</i>	389
Таппулатова Муяссар Одилжановна <i>ИНТЕГРАЦИЯ ЗАЙМСТВОВАННЫХ СЛОВ В ЛЕКСИКУ РУССКОГО ЯЗЫКА</i>	395
Jo'rayeva Mehriniso Safar qizi <i>NASRIY MATNDA SOF TURKIY LEKSIKANING QO'LLANILISHI("ZARBULMASAL" ASARI MISOLIDA)</i>	401
Isaqova Shirina <i>NEWBORN BABIES CARE AND INITIAL PREVENTIVE MEASURES.</i>	405
Hamdamova Shahnoza Yusupaliyevna <i>MODEL AND TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL ABILITIES OF STUDENTS IN MEDICAL EDUCATION</i>	408
Aldashev Ilhomjon To'xtaboyevich Akbarova Navro'za Murodil qizi <i>EDUCATIONAL MICROSOFT SERVICES</i>	413
Мадрахимова Н Марасулова Мухаррам <i>ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ «ЗДОРОВЬЕ» ПРИ ИЗУЧЕНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «ПЕДАГОГИКА» СТУДЕНТАМИ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА</i>	417
Muhamedov Azizbek Abdurahmonova Muattar Bahodir qizi <i>THE ROLE OF TECHNOLOGY IN ENHANCING CRITICAL THINKING IN CLASSROOMS TODAY</i>	420
Hamroyev Sardor Akmaljon o'g'li <i>IMPLICATURE IN CONVERSATION: UNRAVELING THE LAYERS OF MEANING</i>	424
Sh.U. Kamolova D.V. Xolmatova <i>TARBIYASI OG'IR BOLALARNI IJTIMOYILASHTIRISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	428
G.N.Utamuradova <i>SHAXS TOLERANTLIK XUSUSIYATINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK TAVSIFI</i>	433
Kamolova Shirinoy Usarovna Xudoyqulova Gavhar Sulton qizi <i>SHARQ MUTAFAKKIRLARINING SHAXS EMOTSIONAL BARQARORLIGI</i>	437
Kodirova Malokhat Obidjon kizi <i>KRYLOV AND POWER METHODS FOR EIGENVALUES AND EIGENVECTORS OF A SYMMETRIC MATRIX</i>	442